

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
DAVLAT STATISTIKA QO‘MITASI  
NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI  
TOMDI TUMAN STATISTIKA BO‘LIMI**

**TOMDI TUMANINING  
MAKROIQTISODIY KO‘RSATKICHLARI**

**2022- yil  
YANVAR-DEKABR**

## Qisqartma va shartli belgilar


<b>%.</b>	–	foiz	<b>0,0</b>	–	katta bo‘lmagan miqdor
<b>mlrd.</b>	–	milliard	<b>m.</b>	–	marta
<b>mln.</b>	–	million	<b>-</b>	–	ko‘rsatkichning yo‘qligi
<b>ming AQSH doll.</b>	–	ming AQSH dollari	<b>ga.</b>	–	gektar
<b>kv.</b>	–	kvadrat	<b>tn.</b>	–	tonna
<b>km.</b>	–	kilometr	<b>yo‘lovchi-km</b>	–	yo‘lovchi-kilometr
<b>m.</b>	–	metr	<b>1), 2), 3) .....</b>	–	izohning mavjudligi

## MUNDARIJA

Nomi	bet.
<b>TOMDI TUMANI XARITASI VA UMUMIY KO'RSATKICHLARI</b>	<b>4-5</b>
<b>I. TUMANNING ASOSIY IJTIMOIIY-IQTISODIY KO'RSATKICHLARI</b>	<b>6-8</b>
<b>II. SANOAT</b>	<b>9-13</b>
<b>III. XIZMATLAR</b>	<b>14-18</b>
<b>IV. TRANSPORT SOHASI</b>	<b>19-20</b>
<b>V. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI</b>	<b>21-24</b>
<b>VI. INVESTITSIYALAR VA QURILISH</b>	<b>25-29</b>
<b>VII. ISTE'MOL BOZORI VA TASHQI IQTISODIY ALOQALAR</b>	<b>30-32</b>
<b>VIII. QISHLOQ, O'RMON VA BALIQCHILIK XO'JALIGI</b>	<b>33-36</b>
<b>IX. DEMOGRAFIK HOLAT</b>	<b>37-40</b>
<b>X.O'RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI</b>	<b>41</b>

# Navoiy viloyati Tomdi tumanning XARITASI

Tashkil topgan yili 1927-yil  
Markazi: Tomdibuloq  
Maydoni- 42,49 ming km kv



**Tomdi tuman to‘g‘risida  
umumiy ma’lumotlar**

<b>Viloyat</b>	<b>Navoiy</b>
<b>Tuman</b>	<b>Tomdi</b>
<b>Markazi</b>	<i>Tomdibuloq tumanchasi</i>
<b>Tashkil topgan vaqti</b>	<i>03.07.1927 yil</i>
<b>Umumiy maydoni, <i>ming km<sup>2</sup></i></b>	<b>42,49</b>
<b>Tumanga bo‘ysunuvchi tumanlar</b>	<b>-</b>
<b>Ovul fuqarolari yig‘inlari soni</b>	<b>8 ta</b>
<b>Mahalla fuqarolari yig‘inlari soni</b>	<b>8 ta</b>
<b>Aholi punktlari</b>	<b>24 ta</b>
<b>2023-yil 1-yanvar holatidagi doimiy aholi soni, ming kishi</b>	<b>15,8</b>
<b><i>sh. j.</i> : erkaklar, ming kishi</b>	<b>8,1</b>
<b>ayollar, ming kishi</b>	<b>7,7</b>
<b>Viloyat markazigacha bo‘lgan masofa, km</b>	<b>250</b>
<b>Chegaradosh respublikalar, viloyatlar</b>	<b><i>Qozog‘iston Respublikasi</i></b>
<b>Chegaradosh tuman, tumanlar</b>	<b><i>Zarafshon tuman, Uchquduq, Konimex tumanlari</i></b>

## I. TUMANNING ASOSIY IJTIMOIIY- IQTISODIY KO'RSATKICHLARI

### Asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar (2022- yil yanvar-dekabr)

	<i>Jami</i>		<i>Aholi jon boshiga</i>	
	<i>mlrd. so'm</i>	<i>2021- yilning yanvar- dekabriga nisbatan foizda</i>	<i>ming so'm</i>	<i>2021- yilning yanvar- dekabriga nisbatan foizda</i>
Sanoat	50,0	104,2	3 198,8	102,0
Iste'mol tovarlari	44,5	101,3	2 846,9	99,2
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	459,8	112,9	29 435,1	110,5
Asosiy kapitalga investitsiyalar	4 314,4	117,4	276 564,6	114,4
Qurilish ishlari	98,6	134,9	6 322,2	132,3
Chakana tovar aylanmasi	78,2	108,0	5015,7	105,9
Xizmatlar, jami	121,3	112,0	7 776,2	109,9

### Tashqi savdo aylanmasi

(ming AQSH dollari)

	<i>Tashqi savdo aylanmasi</i>	<i>Eksport</i>	<i>Import</i>	<i>Saldo</i>
2022- yilning yanvar-dekabr oylarida	2701,0	950,7	1750,3	-799,6

**Tomdi tumanning Navoiy viloyati bilan solishtirma  
asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari**  
(2022- yil yanvar-dekabr)

	<i>Hajmi mlrd. so'm</i>	<i>2021- yilning yanvar- dekabriga nisbatan foizda</i>	<i>Tomdi tumanning Navoiy viloyatida tutgan ulushi, %da</i>
Sanoat mahsuloti	50,0	104,2	0,1
Iste'mol tovarlari	44,5	101,3	0,9
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	459,8	112,9	2,9
Asosiy kapitalga investitsiyalar	4 314,4	117,4	22,7
Qurilish ishlari	98,6	134,9	1,6
Yuk aylanmasi (mln. tn-km)	21,1	112,5	1,0
Yo'lovchi aylanmasi (mln. yo'lovchi-km)	17,1	101,0	0,4
Chakana tovar aylanmasi	78,2	108,0	0,7
Xizmatlar, jami	121,3	112,0	1,3
Tashqi savdo aylanmasi (ming AQSh doll.)	2701,0	53,8	0,2
Eksport (ming AQSh doll.)	950,7	113,8	0,2
Import (ming AQSH doll.)	1750,3	41,8	0,3

## Asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarning tahlili

	2022- yil yanvar-dekabr, mlrd. so'm		
	O'zbekiston Respublikasi	Navoiy viloyati	Tomdi tuman
Sanoat	551 050,9	84 144,6	50,0
fizik xajm indeksi % da	105,2	105,7	104,2
Iste'mol tovarlari	197 892,7	4 676,5	44,5
o'sish sur'ati, foizda	119,4	104,2	101,3
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	364 522,8	16 070,5	459,8
o'sish sur'ati, foizda	103,6	103,9	112,9
Asosiy kapitalga investitsiyalar	269 857,5	19 396,1	4 314,4
o'sish sur'ati, foizda	100,9	118,2	117,4
Qurilish ishlari	130 767,1	6 062,5	98,6
o'sish sur'ati, foizda	106,6	109,3	134,9
Chakana tovar aylanmasi	319 288,2	12234,6	78,2
o'sish sur'ati, foizda	112,3	112,3	108,0
Jami xizmatlar	357 554,5	9 247,2	121,3
o'sish sur'ati, foizda	115,9	114,2	112,0
Ekspart, mln. AQSH dollari	19 309,1	595,4	1,0
o'sish sur'ati, foizda	115,9	117,1	113,8
Import, mln. AQSH dollari	30 699,3	649,2	1,7
o'sish sur'ati, foizda	120,4	98,4	41,8

### Tomdi tumanning asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarida kichik tadbirkorlik (biznes) sub'ektlarining ulushi, % da (2022- yil yanvar-dekabr)


Sanoat	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	Investitsiya	Qurilish ishlari	Chakana tovar aylanmasi	Jami xizmatlar	Ekspart	Import
100,0	99,1	4,1	83,2	99,3	88,1	100,0	100,0



## II.SANOAT

Dastlabki ma'lumotlarga asosan joriy yilning yanvar-dekabr oylarida Tomdi tumanda faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari tomonidan 50,0 mlrd. so'mlik sanoat maxsulotlari ishlab chiqarildi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik xajm indeksi 104,2 foizni tashkil etdi.

### Sanoat mahsuloti hajmi va fizik hajm indeksi



### Tumanda sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda

	2022- yil yanvar-dekabr
<b>Sanoat korxonalari, jami</b>	92
- Yirik	-
- kichik korxonalar va mikrofirmalar	92
- sh.j. xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar	4

## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish


	O'lchov birligi	2021- yil yanvar-dekabr	2022- yil yanvar-dekabr
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	mlrd.so'm	0,8	2,5
Ishlab chiqaradigan sanoat	mlrd.so'm	45,5	47,5
Elektr, gaz, bug' bilan taminlash va havoni konditsiyalash	mlrd.so'm	-	-
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	mlrd.so'm	-	-

2022-yilning yanvar-dekabr oylarida tumanda 44,5 mlrd. so'mlik iste'mol tovarlari ishlab chiqarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 101,3 % ni tashkil etdi. Jami sanoatdagi ulushi 89,1 % ni (2021-yilning yanvar-dekabr oylarida 44,4 mlrd. so'mlik iste'mol tovarlari ishlab chiqarilgan, o'sish sur'ati 114,5 % ni) tashkil etgan.

### Sanoat mahsuloti ishlab chiqarilishi (2022- yil yanvar-dekabr)


	Sanoat mahsuloti hajmi		tarmoq korxonalar		hududiy korxonalar	
	Hajm, mlrd. so'm	o'sish sur'ati % da	Hajm, mlrd. so'm	ulushi, % da	Hajm, mlrd. so'm	ulushi, % da
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>84 144,6</b>	<b>105,7</b>	<b>77 645,0</b>	<b>92,3</b>	<b>6 499,6</b>	<b>7,7</b>
Tomdi tuman	50,0	104,2	-	-	50,0	100,0

## Iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi



Jumladan, 14,9 mlrd. so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib, umumiy hajmga nisbatan 33,5 % ni tashkil qilib, 29,6 mlrd. so'mlik nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarildi va umumiy hajmga nisbatan 66,5 % foizni tashkil qilganligini kuzatishimiz mumkin.


## Iste'mol mollari ishlab chiqarish tarkibi, foizda (2022- yil yanvar-dekabr)



## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Tumanda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash va uni rag'batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirib borilishi, o'z navbatida kichik biznes sub'ektlari tomonidan sanoat mahsulotlari va xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqarish hajmining doimiy o'sib borishiga sabab bo'lmoqda.

2022-yilning yanvar-dekabr oylarida kichik biznes sub'ektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 50,0 mlrd. so'm bo'lib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 100,0 % ni tashkil etgan.




Davlat va xususiy sektorning o'zaro munosabati mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy barqaror vaziyatni ta'minlashda xususiy biznesning manfaatdorligini oshirishda katta xizmat qiladi. O'z navbatida, mamlakatimizda davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish borasida olib borilayotgan islohotlar natijasi o'laroq Tomdi tumanda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida nodavlat sektorning ulushi salmoqli ekanligini ko'rish mumkin. Tumandagi sanoat korxonalarini tomonidan joriy yilning yanvar-dekabr oylarida 50,0 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi yoki fizik xajm indeksi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 104,2 foizni tashkil etdi, shuning bilan birga nodavlat sektorida 50,0 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, umumiy hajmga nisbatan 100,0 foizni tashkil etdi.

## Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

2022-yil yanvar-dekabr oylarida tuman bo'yicha aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 3 198,8 ming so'mni va sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 103,5 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga xalq iste'moli tovarlarini ishlab chiqarish hajmi 2 846,9 ming so'mni va o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 99,2 % ni tashkil etdi.


### Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi, (ming so'm)



### III. XIZMATLAR

Xizmatlar sohasini rivojlantirish ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatda olib borilayotgan bozor islohotlari jamiyatni rivojlantirishning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hal qilishda xizmat ko‘rsatish sohasining rolini oshirishga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Xizmatlarning xilma-xilligi aholining katta qismini hayot sifatini vafarovonligini yaxshilash imkonini beradi. Natijada, 2022-yil yanvar-dekabr oylarida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi 121,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi. O‘shish sur‘ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 112,0 foizni tashkil etdi.

**Tomdi tumanda jami xizmatlarning o‘shish sur‘atlarining dinamikasi, % da**



**Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan  
korxonalarining toifalari (birlik)**

	2021- yil yanvar-dekabr	2022- yil yanvar-dekabr
<b>Xizmatlar sohasi korxonalari, jami</b>	<b>287</b>	<b>330</b>
- yirik	73	79
- kichik korxonona va mikrofirmalar	214	251

**Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan  
korxonalar soni, birlik**

	2021- yil yanvar-dekabr	2022- yil yanvar-dekabr
<b>Xizmatlar sohasi korxonalari, jami</b>	<b>92</b>	<b>74</b>
- yirik	8	6
- kichik korxonona va mikrofirmalar	84	68

**Ko'rsatilgan xizmatlar hajmi  
(2022- yil yanvar-dekabr)**


	<i>Jami</i>			<i>Aholi jon boshiga</i>	
	<i>mlrd.so'm</i>	<i>2021- yil yanvar- dekabriga nisbatan foizda</i>	<i>jami xizmatlar hajmiga nisbatan foizda</i>	<i>ming so'm</i>	<i>2021- yil yanvar- dekabriga nisbatan foizda</i>
<b>Viloyat bo'yicha:</b>	<b>9 247,2</b>	<b>114,2</b>	<b>100,0</b>	<b>8 851,5</b>	<b>111,9</b>
Tomdi tuman	121,3	112,0	1,3	7 776,3	109,9

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
bozor xizmatlari ishlab chiqarish**  
(2022- yil yanvar-dekabr)

	<b>Mrd. so'm</b>	<b>O'sish sur'ati, % da</b>	<b>Jamiga nisbatan % da</b>
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>121,3</b>	<b>112,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan asosiy turlari bo'yicha:</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	4,1	117,8	3,4
moliyaviy xizmatlar	6,0	119,8	5,0
transport xizmatlari	35,8	108,7	29,5
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	33,5	109,0	27,6
yashash va ovqatlanish xizmatlari	21,0	105,3	17,3
savdo xizmatlari	39,1	111,2	32,3
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	3,8	111,8	3,2
ta'lim sohasidagi xizmatlar	1,7	107,4	1,4
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	0,8	104,9	0,6
ijara xizmatlari	1,5	116,4	1,3
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	1,3	109,0	1,1
shaxsiy xizmatlar	3,5	111,4	2,9
boshqa xizmatlar	2,7	112,9	2,0




**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan  
bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, % da**  
(2022- yil yanvar-dekabr)



Tomdi tumanda o'tgan yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (119,8 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (117,8 %), ijara xizmatlari (116,4 %) da qayd etildi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlari yuqori bo'lmagan sohalar boshqa yashash va ovqatlanish xizmatlari (105,3 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (104,9 %) da qayd etildi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da**  
(2022- yil yanvar-dekabr)



Tomdi tuman bo'yicha yuqori ulush savdo xizmatlari (32,3 %), transport xizmatlari (29,5 %), yashash va ovqatlanish sohasidagi xizmatlar (17,3 %)da qayd etildi.

Uncha yuqori bo'lmagan ulush kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash sohasidagi xizmatlar (1,1 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (0,6 %)da qayd etildi.

## IV. TRANSPORT SOHASI

**Yuk tashish.** 2022-yil yanvar-dekabr oylarida transport turlari tomonidan 0,5 mln. tonna yuk tashilgan bo‘lib, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 110,6 foizni tashkil etdi.

**Yuk aylanmasi** transport turlari tomonidan 21,1 mln.tn-km. ni tashkil qildi va 112,5 foizni tashkil etdi.

### Yuk tashish va yuk aylanmasi transport turlari


	2022-yil yanvar-dekabr	2021-yil yanvar-dekabrga nisbatan foiz hisobida
Tashilgan yuk, mln. tn	0,5	110,6
<i>shu jumladan:</i>		
Avtomobil transportida	0,5	110,6
Yuk aylanmasi, mln. tn-km	21,1	112,5
<i>shu jumladan:</i>		
Avtomobil transportida	21,1	112,5

**Yo‘lovchi tashish.** 2022-yil yanvar-dekabrda transport turlari tomonidan 0,6 mln. kishi tashilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 101,8 foizni tashkil etdi. Yo‘lovchi tashish aylanmasi ushbu davrda 101,0 foizni tashkil etib, 17,1 mln. yo‘lovchi-km. ni tashkil qildi.

## Transport turlari bo'yicha yo'lovchi tashish va yo'lovchi aylanmasi

	2022-yil yanvar-dekabr	2021-yil yanvar-dekabrga nisbatan foiz hisobida
Tashilgan yo'lovchilar, mln. kishi	0,6	101,8
<i>shu jumladan:</i>		
Avtomobil transportida	0,6	101,8
Yo'lovchi aylanmasi, mln. yo'lovchi-km	17,1	101,0
<i>shu jumladan:</i>		
Avtomobil transportida	17,1	101,0

## Yuk tashish va yuk aylanmasi hamda transport turlari bo'yicha yo'lovchi tashish va yo'lovchi aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda



## V. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, Tomdi tumanda 2023-yilning 1-yanvar holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) 721 tani tashkil qilib, shundan faoliyat ko'rsatayotganlari soni 654 tani yoki jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning 90,7 foizini tashkil qildi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi savdoda 204 ta (28,3 foizi), sanoat 102 ta (14,1 foizi), qurilish 40 ta (5,5 foizi) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 25 ta (3,5 foizi) sohalariga to'g'ri keladi.

2023-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra ro'yxatga olingan hamda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi.

	<i>Ro'yxatdan o'tgan</i>		<i>Faoliyat ko'rsatayotgan</i>	
	<i>birlik</i>	<i>yakunga nisbatan foizda</i>	<i>birlik</i>	<i>yakunga nisbatan foizda</i>
<b>Jami</b>	<b>721</b>	<b>100,0</b>	<b>654</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>				
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	213	29,6	195	29,8
sanoat	102	14,1	92	14,1
qurilish	40	5,5	37	5,6
savdo	204	28,3	181	27,7
tashish va saqlash	8	1,1	8	1,2
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	25	3,5	22	3,4
axborot va aloqa	2	0,3	2	0,3
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	11	1,5	11	1,7
boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish	116	16,1	106	16,2

2023-yil 1-yanvar holatiga 574 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 297 ta, xususiy korxonalar – 214 ta, oilaviy korxonalar - 53 ta va boshqa tijorat korxonalar - 10 tani tashkil etadi.

### Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi (birlikda)



### Xorijiy investitsiyalar va sarmoyalar ishtirokidagi korxonalar

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, Navoiy viloyatida 2023-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra ro'yxatga olingan chet el investitsiyasi kiritilgan korxonalar soni 288 tani tashkil qilib, Tomdi tumanda 8 tani tashkil etadi, shundan faoliyat ko'rsatayotgan 7 tani tashkil etadi.

### Oilaviy korxonalar to'g'risida ma'lumot

2023-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra Tomdi tumanda jami 61 ta oilaviy korxonalar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilga nisbatan 5 taga ko'payganligi kuzatilgan, faoliyat ko'rsatayotganlari esa 53 tani tashkil etadi.

	Ro'yxatga olingan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	01.01.2022-y	01.01.2023-y	01.01.2022-y	01.01.2023-y
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>4 156</b>	<b>4 398</b>	<b>4 010</b>	<b>4 157</b>
Tomdi tuman	55	61	49	53
Navoiy viloyatidagi ulushi, foizda	1,3	1,4	1,2	1,3

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	01.01.2022- yil		01.01.2023- yil	
	<i>birlik</i>	<i>yakunga nisbatan foizda</i>	<i>Birlik</i>	<i>yakunga nisbatan foizda</i>
<b>Jami</b>	<b>206</b>	<b>100,0</b>	<b>181</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>				
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	56	27,2	80	44,2
sanoat	55	26,7	26	14,4
qurilish	3	1,5	1	0,5
savdo	58	28,1	47	26,0
tashish va saqlash	-	-	2	1,1
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	8	3,9	7	3,9
axborot va aloqa	-	-	-	-
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	6	2,9	1	0,5
boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish	20	9,7	17	9,4

2022-yil yanvar-dekabr oylarida jami 52 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyati tugatilgan bo'lib, ulardan 52 tasi (jami faoliyati tugatilganlarning 100,0 foizi) kichik tadbirkorlik sub'ektlari hisoblanadi.

## **Kichik tadbirkorlik sub'ektlari** (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz)

2023-yil 1-yanvar holatiga ko'ra ro'yxatga olingan kichik biznes sub'ektlari soni 634 tani tashkil etib, shundan 573 tasi faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, 2022-yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik biznes sub'ektlari soni 174 tani tashkil etadi. O'z navbatida faoliyatini tugatgan kichik biznes sub'ektlari soni 52 tani tashkil etmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining asosiy qismi savdo 204 ta (32,2 foizi), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 211 ta (33,3 foizi), sanoat 102 ta (16,1 foizi) hamda qurilish 40 ta (6,3 foizi) sohalariga to'g'ri keladi.

### **Ro'yxatga olingan hamda faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlari iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni** (2023- yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, dehqon va fermer xo'jaliklarisiz)


	<i>Ro'yxatga olinganlar</i>		<i>Faoliyat ko'rsatayotganlar</i>	
	<i>birlik</i>	<i>yakunga nisbatan foizda</i>	<i>birlik</i>	<i>yakunga nisbatan foizda</i>
<b>Jami</b>	<b>634</b>	<b>100,0</b>	<b>573</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>				
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	211	33,3	193	33,7
sanoat	102	16,1	92	16,1
qurilish	40	6,3	37	6,5
savdo	204	32,2	181	31,6
tashish va saqlash	8	1,3	8	1,4
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	25	3,9	22	3,8
axborot va aloqa	1	0,1	1	0,2
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	3	0,5	3	0,5
boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish	40	6,3	36	6,3



## VI. INVESTITSIYALAR VA QURILISH

2022-yilning yanvar-dekabr oylarida 4 314,4 mlrd. so‘m asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirilib, o‘sh sur‘ati 2021-yilning mos davriga nisbatan 117,4 % ni tashkil etdi.


Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan 2021-yilning mos davriga nisbatan 149,3 % yoki 16,6 mlrd. so‘m (jami investitsiyalar hajmining 0,4 %) o‘zlashtirildi, mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 4 297,8 mlrd. so‘m yoki 2021-yilning yanvar-dekabriga nisbatan 66,3 % (jami investitsiyalardagi ulushi 99,6 %) ni tashkil etdi.




**Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga  
o'zlashtirilgan investitsiyalar**  
(2022- yil yanvar-dekabr)

	mlrd. so'm	o'sish sur'ati %, %	hajmga nisbatan % da
<b>Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar</b>	<b>4 314,4</b>	<b>117,4</b>	<b>100,0</b>
<b>Markazlashgan investitsiyalar:</b>	<b>16,6</b>	<b>119,9</b>	<b>0,4</b>
byudjet mablag'idan	16,6	149,3	0,4
O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida bo'lgan chet el kreditlari	-	-	-
Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	-	-	-
<b>Markazlashmagan investitsiyalar:</b>	<b>4 297,8</b>	<b>66,3</b>	<b>99,6</b>
Korxonalar o'z mablag'lari	120,0	172,3	2,8
aholi mablag'lari	23,0	150,3	0,5
to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar	4 154,8	116,2	96,3
tijorat banki kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	-	-	-


**Markazlashgan investitsiyalar manbalari bo'yicha ulushi, % da**  
(2022- yil yanvar-dekabr)



**Markazlashmagan investitsiyalar manbalari bo'yicha ulushi, % da**  
(2022- yil yanvar-dekabr)




**Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar**  
(jami hajmdagi ulushi, % da)



## Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi


	Jami	umumiy hajmga nisbatan, % da
<b>Jami, mlrd. so'm</b>	<b>4 314,4</b>	<b>22,7</b>
qurilish-montaj ishlari	773,8	17,9
<i>mashina, uskunalar, transport vositalari ishlab chiqarish va xo'jalik jihozlari</i>	3 508,1	81,3
boshqa xarajatlar	32,5	0,8

### Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi % da




## Qurilish ishlari faoliyati

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida Tomdi tumanda jami 98,6 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 134,9 % ni tashkil etdi.




### Qurilish ishlari tarkibi, ulushi %da (2022- yil yanvar-dekabr oylari)



Qurilish ishlari yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar ulushi.

### Qurilish ishlari hajmi mlrd. soʻm (2022- yil yanvar-dekabr oylari)

Qurilish ishlari yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar hajmi.



**Maʼlumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – oʻz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.

## VII. ISTE'MOL BOZORI VA TASHQI IQTISODIY ALOQALAR


Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 78,2 mlrd. so'mni yoki 2021-yilning shu davriga nisbatan 108,0 foizni tashkil qildi.

Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasida (umumiy ovqatlanishni qo'shgan holda) 0,5 mlrd. so'mni tashkil qiladi va umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 0,7 foizni tashkil qildi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 77,7 mlrd. so'mga etdi, umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 99,3 foizni tashkil qildi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlar hajmining 3,7 mlrd. so'mi uyushmagan savdo hisobiga to'g'ri keldi. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasi hajmidagi ulushi 4,7 foizga teng bo'ldi.


### **Chakana savdo tovar aylanmasi (ovqatlanishni qo'shgan holda) tarkibi** (2022- yilning yanvar– dekabr holatiga, foizda)




## Chakana tovar aylanmasi

	Jami		Aholi jon boshiga	
	mlrd. so'm	2021- yilning yanvar-dekabriga nisbatan foizda	ming so'm	2021- yilning yanvar-dekabriga nisbatan foizda
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>12234,6</b>	<b>112,3</b>	<b>11711,1</b>	<b>110,0</b>
Tomdi tuman	78,2	108,0	5015,7	105,9

### Tomdi tumanning ichki va tashqi savdo ko'rsatkichlarining Navoiy viloyatida tutgan ulushi, % da



### Tomdi tumanda tashqi savdoda eksport va importni ulushi, foizda



Tomdi tumanda tashqi savdoning 64,8 foizni import tashkil qiladi. Import yanvar–iyun oylarida 1,7 mln. AQSH dollarga teng bo‘ldi.

### Tashqi savdo aylanmasi (2022- yil yanvar-dekabr)

*(mln. AQSH dollari)*

	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Saldo
Navoiy viloyati	1 244,6	595,4	649,2	- 53,8
Tomdi tuman	2,7	1,0	1,7	- 0,7

### Tomdi tumanda tashqi savdoda eksport va import hajmi (mln. AQSH dollar)



Tomdi tumanning tashqi savdo aylanmasi 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida 2,7 mln. AQSH dollarni, jumladan eksport 1,0 mln. AQSH dollarni, import 1,7 mln. AQSH dollarni, shuningdek tashqi savdo saldosi - 0,7 mln. AQSH dollarni tashkil etdi.



## VIII. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI


Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 459,8 mlrd. so‘mni yoki 2021-yilning mos davriga nisbatan 112,9 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar 458,7 mlrd. so‘mni (112,9 %), o‘rmon xo‘jaligi 1,1 mlrd. so‘mni (102,5 %) tashkil qildi. Viloyat qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarkibida Tomdi tumaninig ulushi 2,9 % ni tashkil etdi.

### Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi va o‘sish sur‘atlari (2022- yilning yanvar-dekabrida)

	<i>Mrd. so‘m</i>	<i>o‘sish sura‘ti, %</i>
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>16 070,5</b>	<b>103,9</b>
Tomdi tuman	459,8	112,9

Xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlillar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 67,7 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 27,5 foizi fermer xo‘jaliklariga, 4,8 foizi qishloq xo‘jaligini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

### Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish hajmining xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha taqsimlanishi (umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)



## CHORVACHILIK



Kelgusida chorvachilik sohasining imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning izchillik bilan amalga oshirilishi hamda davlat tomonidan ko'rsatilayotgan tizimli qo'llab-quvvatlashlar natijasida qoramollar bosh sonining o'sishiga, ichki iste'mol bozorlarining chorvachilik mahsulotlari bilan to'yinishiga imkon yaratdi.

2022-yilning yanvar-dekabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi 455,9 mlrd. so'mni yoki 2021-yilning shu davriga nisbatan 112,5 foizni tashkil qildi. Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 100,0 foizni tashkil etdi.


2023-yilning 1-yanvar holatiga yirik shoxli qoramollar bosh soni 5 554 boshga (103,4 foizni), shu jumladan sigirlar 2 011 boshga (116,3 foizni), qo'y va echkilar 341 018 boshga (103,0 foizni), otlar 5 719 boshga (100,5 foizni), parrandalar 39 085 boshga (109,9 foizni) tashkil qildi.

## Xo‘jalik toifalari bo‘yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni

(2023- yil 1-yanvar holatiga)

	Jami		shu jumladan:					
			Fermer xo‘jaliklari		Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari		Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	bosh	h sur‘a ti,	bosh	h sur‘a ti,	bosh	h sur‘a ti,	bosh	h sur‘a ti,
Yirik shoxli qoramollar	5 554	103,4	2 451	106,1	3 009	101,0	94	119,0
shu jumladan: sigirlar	2 011	116,3	700	106,2	1 297	122,5	14	127,3
Qo‘ylar va echkilar	341 018	103,0	177 915	100,6	109 072	101,8	54 031	114,2
Otlar	5 719	100,5	4 132	99,0	1 388	102,0	199	128,4
Parrandalar	39 085	109,9	25 350	114,3	13 735	102,5	-	-

### Xo‘jalik toifalarining chorva mollari va parrandalar bosh sonidagi ulushi, foiz hisobida



- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar


Umumiy bosh songa nisbatan dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarida yirik shoxli qoramollarning ulushi 54,2 foizni, fermer xo‘jaliklarida 44,1 foizni, qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida 1,7 foizni tashkil etdi, sigirlar mos ravishda 64,5 foizni, qo‘y va echkilar 32,0 foizni, otlar 24,2 foizni, parrandalar 35,1 foizni tashkil qildi.

### Xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish (2022- yilning yanvar-dekabr oylari)

	Jami		shu jumladan					
			Fermer xo‘jaliklari		Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari		Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	miqdori	o‘sish sur‘ati, foizda	miqdori	o‘sish sur‘ati, foizda	miqdori	o‘sish sur‘ati, foizda	miqdori	o‘sish sur‘ati, foizda

Go‘sht tirik vaznda, tonna	10 864,4	113,4	2 910,5	127,8	7 336,6	101,8	617,3	6,3m.
Sut, tonna	3 607,3	108,6	680,3	110,3	2 908,2	107,7	18,8	6,3m.
Tuxum, ming dona	1 591,0	107,4	49,0	112,1	1 542,0	107,2	-	-

### Xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishdagi ulushi, foiz hisobida



- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

## IX. DEMOGRAFIK HOLAT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilning 1-yanvar holatiga Tomdi tuman doimiy aholi soni 15,8 ming kishini tashkil qildi va yil boshidan 0,4 ming kishiga yoki 2,6 foizga ko'paydi.


### Doimiy aholi soni

(2023- yil 1-yanvar holatiga, ming kishi)

	Jami aholi soni	shu jumladan:	
		erkaklar	ayollar
Navoiy viloyati	1 055,5	534,8	520,7
Tomdi tuman	15,8	8,1	7,7

### Tomdi tumanning doimiy aholi sonida erkak va ayolning ulushi

(2023- yil 1-yanvar holatiga, foizda)



Shuningdek, 2023-yilning 1-yanvar holatiga Tomdi tumanda 51,3 % erkaklar va 48,7 % ni ayollar tashkil etgan. Demak, Tomdi tumanda erkaklar soni ayollar soniga nisbatan ko‘proq ekanligini kuzatishimiz mumkin.

### **Aholining tabiiy harakati** (yanvar-dekabr oylari)

	<i>kishi</i>			<i>har 1000 aholiga, nisbatan</i>	
	<i>2021- yil</i>	<i>2022- yil<sup>1)</sup></i>	<i>o‘shish, kamayish</i>	<i>2021- yil</i>	<i>2022- yil<sup>1)</sup></i>
Tug‘ilganlar	247	256	9	16,2	16,4
O‘lganlar	74	62	-12	4,8	4,0
Tabiiy o‘shish	173	194	21	11,4	12,4
Nikohlar	61	56	-5	4,0	3,6
Ajralishlar	6	13	7	0,4	0,8


**Tug‘ilish darajasi.** 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida tug‘ilganlar soni 256 kishini tashkil qildi va (2021-yilning shu davriga 247 kishi) nisbatan 9 taga ko‘paydi. Tug‘ilish koeffitsienti mos ravishda 16,4 promilleni tashkil qildi va (2021-yilning shu davriga 16,2 promille) nisbatan 0,2 promillega ko‘paydi.

**O‘lim darajasi.** 2022-yilning yanvar–dekabr oylarida vafot etganlar soni 62 kishini tashkil qildi va (2021-yilning shu davriga 74 kishi) nisbatan 12 taga o‘limlar soni kamaydi. Mos ravishda o‘lim koeffitsienti 4,0 promilleni tashkil qildi va (2021-yil yanvar-dekabrga 4,8 promille) nisbatan 0,8 promillega kamaydi.

**Tabiiy o‘shish.** Yuqoridagi jadvaldan shuni kuzatishimiz mumkinki 2022-yilning yanvar-dekabr holatiga tabiiy o‘shish 194 kishini tashkil qildi va (2021-yilning shu davri 173 kishi)ga nisbatan 21 kishiga oshganligini kuzatishimiz mumkin.


<sup>1)</sup> dastlabki ma’lumot

**Aholining tabiiy harakati**  
(yanvar-dekabr oylarida kishi, birlikda)




**Nikohlar va ajralishlar.** 2022-yilning yanvar-dekabrida FHDYO organlarida 56 ta nikohlar va 13 ta ajralishlar ro'yxatga olindi, ming aholiga nisbatan 3,6 ga nikoh (2021-yilning tegishli davrida 4,0 ga) va 0,8 ga ajralishlar (2021-yilning tegishli davrida 0,4 ga) to'g'ri keladi.

**Tomdi tuman bo'yicha tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar bo'yicha ma'lumot (birlikda) (yanvar-dekabr holatiga)**



**Migratsiya.** Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida Tomdi tuman bo'yicha ko'chib kelganlar soni 281 kishini, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa 122 kishini tashkil qildi. Migratsiya qoldig'i 159 kishiga (2021-yilning shu davrida qoldig'i 138 kishi) teng bo'ldi.

**Aholining migratsiya ko'rsatkichlari**  
(yanvar-dekabr oylarida kishi, birlikda)



**Tomdi tumanning ijtimoiy ko'rsatkichlari**  
(2023- yil 1-yanvar holatiga)

	Soni		Koeffitsienti, 1000 aholiga nisbatan	
	2022- yil	2023- yil	2022- yil	2023- yil
Doimiy aholi soni, (ming kishi)	15,4	15,8	x	x
Aholining tabiiy o'sishi (kishi)	173	194	11,4	12,4
Tug'ilganlar (kishi)	247	256	16,2	16,4
Vafot etganlar (kishi)	74	62	4,8	4,0
Tuzilgan nikohlar (kishi)	61	56	4,0	3,6
Nikoxdan ajralishlar (kishi)	6	13	0,4	0,8
Ko'chib kelganlar (kishi)	339	281	22,2	18,0
Ko'chib ketganlar (kishi)	201	122	13,1	7,8



## X. O‘RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI

**O‘rtacha oylik ish haqi.** 2022-yil yanvar-dekabr oylarida Navoiy viloyatida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 5 125,3 ming so‘mni tashkil etib, Tomdi tumanida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 016,6 ming so‘mni tashkil etdi.

Bunda ish haqiga ustama, mukofot, rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to‘lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig‘i, ijtimoiy sug‘urta va kasaba uyushmasiga to‘lovlar ham mavjud.

### **O‘rtacha nominal hisoblangan ish haqi** *(qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik sub‘ektlaridan tashqari)*

*ming so‘m*

	<b>O‘rtacha nominal hisoblangan ish haqi</b>	
	<i>2021- yil yanvar-dekabr</i>	<i>2022- yil yanvar-dekabr</i>
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>4 578,3</b>	<b>5 125,3</b>
Tomdi tuman	2 477,3	3 016,6

**TOMDI TUMANNING  
STATISTIK AXBOROTNOMASI  
2022- yil yanvar-dekabr**

*Nashrga mas'ul:*  
**Tomdi tuman statistika bo'limi**  
*tel. (79) 582-12-93*

**Buyurtma raqami №1**

**2023 y. Tiraj 9 nusxa**

*Navoiy viloyat statistika boshqarmasi*  
*Navoiy sh. A.Temur ko'chasi, 4 uy*  
**[WWW.NAVSTAT.UZ](http://WWW.NAVSTAT.UZ)**



